

**AYRIM XORIJIY DAVLATLARNING JINOYAT QONUNCHILIGIDA  
DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ KORRUPSIYAVIY  
JINOYATLAR UCHUN JAVOBGARLIK (TEZIS)**

Sodiqov Shahzod Bobosherovich

Telefon:+99894 551 23 32 shahzodsodiqov723@gmail.com

**Anotatsiya**

Korrupsiyaning namoyon bo'lishi siyosiy tuzilishi va iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, juda keng doiradagi mamlakatlarga xosdir. Korrupsiyaning bunday keng ko'lami namoyon bo'lishi xalqaro xarakterdagi bir qator qonun hujjatlarining ishlab chiqilishi va qabul qilinishit nomoyon qiladi.

**Kalit so'zlar:** korrupsiya, korrupsiyaviy jinoyatlar, korrupsiyaga qarshi kurashish, hokimiyatni suiiste'mol qilish, poraxo'rlik, mansabdorlik jinoyatlari, Korrupsiyaning namoyon bo'lishi siyosiy tuzilishi va iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'i nazar, juda keng doiradagi mamlakatlarga xosdir. Korrupsiyaning bunday keng ko'lami namoyon bo'lishi xalqaro xarakterdagi bir qator qonun hujjatlarining ishlab chiqilishi va qabul qilinishit nomoyon qiladi. Jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurash xarakteridagi Yevropa Kengashining Korrupsiyaga oid jinoiy-huquqiy konvensiyasi (Strasburg, 1999-yil 27-yanvar), Yevropa Kengashining Korrupsiyaga oid fuqarolik-huquqiy konvensiyasida (Strasburg, 1999-yil 4-noyabr) xalqaro huquqiy normalari bugungi kunda korrupsiyaning oldini olishga hizmat qilib kelmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1979-yil 17-dekabrdagi rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xulq-atvori kodeksi, BMTning "Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha amaliy chora-tadbirlari to'g'risida"gi qo'llanmasi, Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro xulq-atvor kodeksi (BMT Bosh Assambleysi 1996-yil 12-dekabrdagi rezolyutsiyasi), Yevropa Kengashi Vazirlar Qo'mitasining 1997-yil 6-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashning yigirmata tamoyili<sup>1</sup>.

Shvetsiyada 2001-yilda "Davlat xaridlaridagi qonunbuzarlikni taqiqlash to'g'risida"gi maxsus qonun ham qabul qilingan. Yuqorida qayd etilgan me'yoriy hujjatning asosiy yo'nalishi buyurtmachilarining davlat shartnomasi uchun kurashda raqobatni buzuvchi harakatlarining oldini olishdan iborat.

<sup>1</sup> <https://www.oecd.org/>



Bundan tashqari, “Davlat xaridlari to’g’risida”gi qonun amalda bo’lib, unda buyurtmachining tanlov savdolarini o’tkazish bo’yicha barcha harakatlari aniq tasvirlangan<sup>2</sup>. O’z navbatida Avstraliya raqobatbardosh savdolarning «shaffofligi» bo’yicha tan olingan jahon yetakchisi hisoblanadi. Bu yerda barcha xarid tartib-taomillari, jumladan, mansabdor shaxslar ustidan mukammal nazorat tizimi yo’lga qo’ylgani tufayli ijobiy natijaga erishilmoqda. Shu bilan birga, Avstraliyaning alohida shtatlari xarid qilishda katta avtonomiyaga yega va mamlakat hukumati tomonidan olib boriladigan xaridlar bo’yicha umumiyligini siyosat doirasida ishlaydi. Davlat xaridlarini amalga oshirishning belgilangan tamoyillariga so’zsiz rioxasi qilish mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini belgilash orqali erishiladi.

Singapur davlatida korrupsiyaga qarshi kurashda jumladan davlat xaridlari sohasida juda sermahsul natisasi namoyon bo’ldi. Shu maqsadda mamlakatda Korrupsiyani tergov qilish byurosi deb nomlangan ixtisoslashtirilgan organ ishlab chiqilgan. Ushbu mustaqil organ iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarida korrupsiya holatlariga qarshi kurashishga qaratilgan<sup>3</sup>. Yuqoridaq organning vakolatiga davlat va jamoat tashkilotlarida korrupsiyaning yuzaga kelishi mumkin bo’lgan nuqtalarini monitoring qilish tizimi, korrupsiya nuqtai nazaridan xavfli bo’lgan lavozimlarga shaxslarni tanlash tizimi va boshqalar kiradi.

Bugungi kunda dunyoning rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarida ham korrupsiya illatlarini jamiyatning ko’plab sohalarida guvohi bo’lmoqdamiz.

Jumladan, AQShda 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish va 1 mln. dollar miqdorida jarima<sup>4</sup>, Germaniya<sup>5</sup>, Koreya<sup>6</sup> va Latviya<sup>7</sup> davlatlarida 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, Singapurda 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi nazarda tutilgan. Xitoyda tuzilishi natijasida davlat manfaatlariga zarar yetkazilgan bitimni tuzgan davlat organining yoki davlat ulushi bo’lgan tashkilotning mansabdor shaxsiga nisbatan jinoiy javobgarlik o’rnatalib, 7 yilgacha muddatga ozodlikdan mahrum etilishi belgilangan.

Ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi boshqa jinoyatlardan ancha yuqori. Sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning obyekti bir tomonidan davlatning iqtisodiy asoslari bo’lib, buni sodir etilgan iqtisodiy jinoyatlar oqibatida yetkazilgan moddiy

<sup>2</sup> Link A.N., Scott J.T. Private Investor Participation and Commercialization Rates for Government-sponsored Research and Development Would a Prediction Market Improve the Performance of the SBIR Programme// *Economica*. 2019. 76(302): 264–28

<sup>3</sup> <https://criminallawyer.regentlaw.com.sg/>

<sup>4</sup> [www.law.cornell.edu/uscode/text/18/1031](http://www.law.cornell.edu/uscode/text/18/1031)

<sup>5</sup> [www.gesetze-im-internet.de/englisch\\_stgb/german\\_criminal\\_code.pdf](http://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/german_criminal_code.pdf).

<sup>6</sup> [www.oecd.org/site/adboecdanti-corruptioninitiative/46816472.pdf](http://www.oecd.org/site/adboecdanti-corruptioninitiative/46816472.pdf)

<sup>7</sup> <http://www.legislationline.org/documents/section/criminal-codes>



zararda ko'rish mumkin. Ikkinchi tomondan, ushbu jinoyatlarning obyekti hokimiyat va boshqaruv organlarining normal faoliyati bo'lib, jinoyatlar oqibatida davlat va jamiyat manfaatlariga ma'naviy-ruhiy, jismoniy yoki boshqa tarzdagi zarar ham yetkaziladi.

AQShda davlat xaridlari sohasidagi mansabdorlik jinoyatining "kickbacking" shakli ancha ko'p yoyilgan<sup>8</sup>. Uning sxemasi juda sodda: jinoiy til biriktirish ishtirokchilari muayyan narxlarda bitim tuzishga og'zaki kelishadilar, rasmiy bitimni esa balandroq narxlarda imzolaydilar. Tafovutning bir qismi bitimga ruxsat bergan mansabdor shaxslarga beriladi, ya'ni yashirin pora beriladi.

AQShning Oq uy ma'muriyati esa, doimiy ravishda siyosiy kompaniyalar uchun ajratilgan mablag'lardan noqonuniy ravishda foydalanilganligi haqidagi ayblovlar bilan kurashib keladi. Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, Yaponiya va AQSh kabi rivojlangan mamlakatlarda ham davlat xizmatidagi mansabdor shaxslarning davlat xaridlari sohasidagi korrupsiyalashuvi tez-tez ko'rishimiz mumkin.

Misol uchun, 90-yillarning ikkinchi yarmida Germaniyada 2 mingga yaqin mansabdor shaxslarga nisbatan mansabdorlik jinoyatlari bo'yicha rasman jinoyat ishlari qo'zg'atilib, tergov qilingan<sup>9</sup>.

Kontinental huquq oilasiga mansub Fransiya, Italiya, Germaniya mamlakatlarida davlat xaridlari sohasidagi mansabdorlik jinoyatlari ijtimoiy xavfi eng yuqori jinoyatlar sifatida baholanadi.

Fransiyaning 1992-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksiga ko'ra davlat xaridlari sohasidagi mansabdorlik jinoyatlarining poraxo'rlik, mansab vakolatini suiiste'mol qilish, xizmat sirini oshkor qilish yoki unga suiqasd qilish va boshqa shakllari belgilab berilgan<sup>10</sup>.

AQShning Nyu-Jersey shtatida ham 2018-yilda aynan qurilish sohasida davlat xaridlarini amalga oshirishda elektron tenderlar o'zkazilishi to'g'risida qonun qabul qilingan. Unga asosan, qiymati 5 mln. AQSh dollaridan oshadigan har qanday obyektlar yuzasidan elektron tender savdolari o'tkazilishi belgilangan<sup>11</sup>.

<sup>8</sup> Kickback Definition, How It Works, and Examples. – Available at:  
<https://www.investopedia.com/terms/k/kickback.asp>

<sup>9</sup> Э.Робертсон, Л.Этрон, Д.Мозес. "Biggest Risk of corruption in the construction industry - the Globe picture". 2014 йил

<sup>10</sup> The Code pénal is the codification of French criminal law (droit pénal).1992

<sup>11</sup> New Jersey procurement tracker: Oct. 25, 2018. <https://www.politico.com/states/new-jersey/story/2018/10/24/new-jersey-procurement-tracker-oct-25-2018-663389>



Davlat xaridlarini onlayn tarzda amalga oshirish sohasida Koreya Respublikasi ham o'zining ilg'or va sinalgan tajribalarga boy mamlakat sifatida qaraladi. 2002-yildan boshlab, Koreya Respublikasida davlat xaridlarini onlayn tarzda o'tkazish usuli boshlandi. Davlat xaridlari Koreya Respublikasining Davlat xaridlari markaziy agentligi tomonidan amalga oshiriladi. 2002-yilda yangi "KONEPS" (Korean online electronic procurement system) tizimi tashkil etildi<sup>12</sup>.

2018 yil 4 mayda Rossiya Federasiyasi Jinoyat kodeksiga o'zgartirishlar kiritilib, ular davlat xaridlari sohasidagi jinoyatlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 200.4 va 200.5. moddalar bilan to'ldirildi. Jumladan, Rossiya Federasiyasi Jinoyat kodeksining 200.4-moddasida davlat xaridlari-tovarlar (ko'rsatilgan xizmatlar yoki bajarilgan ishlar) suiiste'mol qilinganligi uchun 200 ming rubl miqdorida jarima yoki 3 yilgacha ozodlikdan ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jinoiy jazo nazarda tutilgan. Jumladan, so'nggi ikki yil davomida Rossiya Federasiyada hisobga olingan davlat manfaatlariga xilof ravishda bitim tuzish jinoyatlarining deyarli yarmi, 48%i mansabdor shaxslar tomonidan yoki ularning ishtirokida sodir etilganligi qayd etilgan. Vaholanki, 2019 yilda bu ko'rsatkich 60%ni tashkil etgan. Jinoyatchilik turlari kesimida olinganda, o'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-toroj etishning 72%, savdo va xizmatlar ko'rsatish sohasidagi firibgarlikning 33%, buxgalterlik hujjatlarini soxtalashtirish va kompyuter-texnikasi vositalari yordamida talon-toroj etishning 23%, jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishning 12% mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

#### **1.1. Rahbariy adabiyotlar:**

1. Э.Робертсон, Л.Этрон, Д.Мозес. "Biggest Risk of corruption in the construction industry - the Globe picture". 2014 йил;
2. The Code pénal is the codification of French criminal law (droit pénal).1992.

#### **1.2. Normativ huquqiy hujjatlar:**

- 2.1. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. // <https://lex.uz/docs/-3088008> .
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari

<sup>12</sup> [https://www.dgovkorea.go.kr/service1/g2c\\_07/koneps](https://www.dgovkorea.go.kr/service1/g2c_07/koneps)



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> Nov., 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

to'g'risida"gi Farmoni. // <https://lex.uz/docs/-4355387> / Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 29.05.2019y., 5729-son.

2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. // <https://lex.uz/ru/docs/-4875784> Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi, 30.06.2020y., 6013-son.

### Elektron hujjatlar:

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. [www.onlinezakon.ru](http://www.onlinezakon.ru).
3. [www.norma.uz](http://www.norma.uz).